XALQ DEPUTATLARI TO‘RTKO‘L TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 28-mart VII-7-40-13-190-K/25 To‘rtko‘l tumani

To‘rtko‘l tumanidagi “O‘zbekiston” mahalla fuqarolar yig‘inini “O‘zbekobod” deb qayta nomlash to‘g‘risida

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2024-yil 25-noyabrdagi 11-07/5-11/703-sonli xatiga asosan To‘rtko‘l tumanidagi “O‘zbekiston” OFY va “O‘zbekiston” MFY nomlari bir hudud doirasida takror ekanligini inobatga olgan holda ularning nomlarini o‘zgartirish masalasini qonunda belgilangan tartibda ko‘rib chiqish so‘ralgan. Vazirlar Kengashi Rayosatining 2024-yil 27-dekabrdagi 21-sonli bayonida tumandagi “O‘zbekiston” OFY va “O‘zbekiston” MFYdan birini qayta nomlash masalasi alohida qayd etilgan.

Qonunda belgilangan tartibda “O‘zbekiston” mahalla fuqarolar yig‘ini tomonidan tuman hokimiga takliflar kiritilib, tuman Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi tomonidan “Obod O‘zbekiston” nomi Qoraqalpog‘iston Respublikasi komissiyasiga yuborilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 3-martdagi 03/08-2123-sonli ekspert xulosasiga asosan “Obod O‘zbekiston” taklifi “Geografik obyektlarning yozilishi” qoidalari asosida “O‘zbekobod” deb normallashtirilgan va qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb topilgan.

To‘rtko‘l tumanidagi “O‘zbekiston” mahalla fuqarolar yig‘inini “O‘zbekobod” deb qayta nomlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-sonli qarori hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Prezidiumining 2014-yil 14-martdagi “Shaharlar, posyolkalar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash

haqida”gi 271-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi” Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari To‘rtko‘l tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 3-martdagi 03/08-2123-sonli ekspert xulosasiga asosan To‘rtko‘l tumanidagi “O‘zbekiston” mahalla fuqarolar yig‘ini “O‘zbekobod” deb qayta nomlansin.

2. Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali, tuman Soliq inspeksiyasi (J.Annayev), tuman Ichki ishlar bo‘limi (R.Turganbayev), O‘zbekiston mahallari uyushmasi tuman bo‘limi (B.Zakirjanov) va tegishli tashkilotlar mazkur qarorda ko‘rsatilgan o‘zgarishlarni e’tiborga olgan holda tegishli idoraviy hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritsin.

3. O‘zbekiston mahallari uyushmasi tuman bo‘limi (B.Zakirjanov)ga o‘n kun muddatda mazkur qaror bilan qayta nomlanayotgan mahalla nomini aholi o‘rtasida keng targ‘ib etish, ushbu mahalla hududidagi peshlavha va ko‘rsatkichlarning yangi nom bilan lotin alifbosida yangidan yozilishini ta’minlash yuklansin.

4. Tuman hokimining Moliya – iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (Sh.Xudaynazarov)ga qayta nomlangan mahalla nomi yozilgan peshlavhalarni tayyorlash uchun mablag‘ ajratish masalasini belgilangan tartibda hal qilish topshirilsin.

5. To‘rtko‘l tumani Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasi (R.Shamuratov)ga:

qayta nomlangan mahalla nomini O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligiga davlat reyestri bazasiga kiritish uchun taqdim qilish topshirilsin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

7. Tuman hokimligining Axborot xizmati rahbari M.Bekchanovaga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish vazifasi yuklansin.

8. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi

SHAMURATOV
RUSTAM AZATOVICH